TALABALARDA MA'NAVIY DUNYOQARAŞNI RIVOJLANTIRIŞNING PEDAGOGIK IMKONIYATLARI: IJODIY VA INTERPRETATSION YONDAŞUVNING NAZARIY ASOSLARI

Gulzodabegim Anarbekova
Özbekiston Davlat Jahon Tillari Universiteti
Toşkent, Özbekiston
Email: gulzodabegimanarbekova@gmail.com
https://orcid.org/0009-0009-2306-4393

ANNOTATSIYA.

Maqolada oliy ta'lim muassasalari talabalarida ma'naviy dunyoqaraşni rivojlantirişning pedagogik imkoniyatlari ijodiy va interpretatsion yondaşuvlar uyğunligi asosida nazariy jihatdan tahlil qilinadi. Ma'naviy dunyoqaraş şaxsning axloqiy mezonlari, qadriyatlarga munosabati, ijtimoiy mas'uliyati, özligini anglaşi va hayotiy hodisalarga mustaqil baho beriş qobiliyatini birlaştiruvçi murakkab sifat sifatida talqin etiladi. Ijodiy yondaşuv talabaning mustaqil fikrlaşi, muammoga yangiça qaraşi va muqobil yeçimlar yaratişini faollaştirsa, interpretatsion yondaşuv qadriyatlar, madaniy matnlar va ijtimoiy tajribani anglaş, şarhlaş hamda şaxsiy pozitsiya bilan boğlaşga xizmat qiladi. Tadqiqot nazariy-tahliliy xarakterga ega bölib, ilmiy adabiyotlarni tahlil qiliş, qiyoslaş, umumlaştiriş va pedagogik modellaştiriş metodlariga tayanadi. Natijada ma'naviy dunyoqaraşni rivojlantirişning özaro boğliq tarkibiy qismlari, pedagogik tamoyillari va ta'limiy şart-şaroitlari tizimlaştiriladi. Taklif etilgan yondaşuv oliy ta'limda ma'naviy-axloqiy rivojlanişni tayyor me'yorlarni yod oldiriş bilan çeklamasdan, talabaning anglaş, munozara, ijodiy ifoda va refleksiya faoliyati orqali taşkil etiş zarurligini asoslaydi (Rao et al., 2024; Brown et al., 2024).

Kalit sözlar: ma’naviy dunyoqaraş, ijodiy yondaşuv, ma’naviy-axloqiy tarbiya, interpretatsion yondaşuv, oliy ta’lim, qadriyatlar, refleksiya, talaba şaxsi, pedagogik şart-şaroitlar.

KIRIŞ

Globallaşuv, raqamli kommunikatsiya va ijtimoiy-madaniy özgarişlar şaroitida oliy ta’limning vazifasi faqat kasbiy bilim va amaliy könikmalarni şakllantiriş bilan çeklanmaydi. Universitet talabani murakkab axloqiy vaziyatlarni tahlil qila oladigan, turli nuqtayi nazarlarni tinglaydigan, öz qaraşlarini dalillar bilan asoslaydigan va jamiyat oldidagi mas’uliyatini anglaydigan şaxs sifatida rivojlantirişga ham kömaklaşişi lozim. Oliy ta’limdagi qadriyatlar ta’lim mazmuni, öqitiş usullari, baholaş mezonlari va universitet madaniyati orqali namoyon bölişi qayd etiladi (Rao et al., 2024).

Ma’naviy dunyoqara tuşunçasi uşbu maqolada tor diniy yoki mafkuraviy mazmunda emas, balki şaxsning inson qadr-qimmati, adolat, halollik, mas’uliyat, bağrikenglik, vijdon, mehnatsevarlik va ijtimoiy hamjihatlik kabi qadriyatlarga ongli munosabatini qamrab oluvçi pedagogik kategoriya sifatida qöllaniladi. Bunday yondaşuv talabaning qadriyatlarni taşqi talab sifatida qabul qilişi emas, ularni anglab, muayyan vaziyatlarda mustaqil qöllay olişi muhimligini körsatadi. Universitetda fazilat va xarakter tarbiyasi masalasi ham aynan şaxsiy avtonomiya hamda turli dunyoqaraşlar mavjud bölgan muhitda ma’naviy rivojlanişni qöllab-quvvatlaş nuqtayi nazaridan muhokama qilinadi (Brant et al., 2022).

Maqolaning dolzarbligi ma’naviy-axloqiy tarbiya mazmunini talabaning faol biliş jarayoni bilan boğlaş zaruratidan kelib çiqadi. An’anaviy yondaşuvda ayrim hollarda qadriyatlar tayyor xulosa va qoidalar şaklida taqdim etilib, talabaning ularni mustaqil tahlil qilişi, turli vaziyatlarda talqin etişi va şaxsiy hayotiy tajribasi bilan boğlaşi uçun yetarli imkoniyat yaratilmasligi mumkin. Biroq zamonaviy pedagogik qaraşlar ta’lim oluvçining ijodiy iştiroki,

hamkorlikdagi izlanişi va öz ta’lim tajribasini anglaşiga alohida e’tibor qaratadi. Ijodkorlikni ta’limning alohida maşğuloti emas, balki öquv jarayonini taşkil etiş tamoyili sifatida köriş mumkinligi xalqaro tadqiqotlarda asoslanadi (Glynn, 2023; Valquaresma et al., 2024).

Ijodiy yondaşuv talabalarda ma’naviy dunyoqaraşni rivojlantirişga, avvalo, muammoli vaziyatlarni yangiça köriş, axloqiy tanlovning oqibatlarini oldindan tasavvur qiliş, muqobil yeçimlarni işlab çiqiş va öz qaraşini ijodiy ifodalaş orqali ta’sir körsatadi. Bunda ijodkorlik faqat badiiy mahsulot yaratiş bilan çeklanmaydi; u fikrlaş moslaşuvçanligi, savol qöyiş, dalillarni qayta körib çiqiş va yangi ma’no hosil qilişni ham qamrab oladi. Ta’limdagi ijodkorlikning ijtimoiy-madaniy kontekst bilan uzviy boğliqligi hamda turli ta’lim muhitlarida turliça namoyon bölişi alohida ta’kidlanadi (Brown et al., 2024; Tillman, 2024).

Interpretatsion yondaşuv esa talabaning qadriyatlar, tarixiy-madaniy meros, badiiy va ijtimoiy matnlar, real hayotiy hodisalar mazmunini anglaş va şarhlaş faoliyatiga tayanadi. Talaba ma’lumotni şunçaki qabul qilmaydi; u muallif yoki voqea nuqtayi nazarini aniqlaydi, kontekstni hisobga oladi, öz tajribasi bilan taqqoslaydi va asoslangan xulosa çiqaradi. Şu jarayonda ma’naviy mazmun şaxsiy anglaş obyekti va içki e’tiqodga aylanişi mumkin. Oliy ta’limda özlikni anglaş, şaxsiy şakllaniş va ta’lim tajribasining ontologik ölçamiga e’tibor qaratilişi bu fikrni qöllab-quvvatlaydi (Dall’Alba, 2024).

Maqolaning maqsadi – talabalarda ma’naviy dunyoqaraşni rivojlantirişda ijodiy va interpretatsion yondaşuvlarning nazariy-pedagogik imkoniyatlarini aniqlaş, ularning özaro töldiruvçi funksiyalarini oçib beriş hamda samarali pedagogik şart-şaroitlarni tizimlatiriş.

TADQIQOT VAZIFALARI VA KONSEPTUAL ASOS

Belgilangan maqsadga erişiş uçun quyidagi vazifalar qöyildi: ma’naviy dunyoqaraş tuşunçasining pedagogik mazmunini aniqlaştiriş; ijodiy va interpretatsion yondaşuvlarning ta’limiy imkoniyatlarini tahlil qiliş; ularning umumiy va farqli jihatlarini qiyoslaş; oliy ta’lim şaroitida mazkur yondaşuvlarni

birlaştiruvçi pedagogik tamoyillarni belgilaş; ma’naviy dunyoqaraş rivojini kuzatiş mumkin bölgan körsatkiçlarni taklif etiş. Uşbu vazifalar maqolaning nazariy-tahliliy yönalişini belgilaydi.

Ma’naviy dunyoqaraşni bir martalik tarbiyaviy tadbir natijasi sifatida emas, balki bilim, qadriyat, munosabat, refleksiya va xulqiy tanlovning özaro ta’sirida şakllanadigan dinamik jarayon sifatida tuşuniş maqsadga muvofiq. Bunda bilim komponenti talabaning axloqiy va ijtimoiy tuşunçalar haqidagi tasavvurlarini; qadriyatli komponent muhim deb bilgan mezonlarini; refleksiv komponent öz qaraşlari va xatti-harakatlarini tahlil qilişini; amaliy komponent esa kundalik qarorlarida mas’uliyatli pozitsiyani namoyon etişini ifodalaydi. Qadriyatlar oliy ta’limning öquv dasturi, öqitiş, örganiş va baholaş tizimiga singib borişi zarurligi haqidagi qaraşlar uşbu tarkibiy yondaşuv uçun muhim nazariy asos böla oladi (Rao et al., 2024).

Ma’naviy rivojlanişning muhim şarti – talabaning fikriy mustaqilligini hurmat qilgan holda, inson qadr-qimmati va özaro hurmatga asoslangan muloqot muhitini yaratişdir. Bunday muhitda pedagog tayyor axloqiy hukmni majburan qabul qildirişdan köra, savollar, dalillar, qarama-qarşi nuqtayi nazarlar va hayotiy misollar orqali fikrlaşni rağbatlantiradi. Universitetda fazilatlarni rivojlantiriş masalasi turli qaraşlar mavjud bölgan jamiyatda ta’limning imkoniyatlari va çegaralarini hisobga olgan holda körib çiqilişi lozim (Brant et al., 2022; Beale & Easton, 2025).

Maqolada “interpretatsion” atamasi talabaning ma’no hosil qiliş, mazmunni şarhlaş va öz nuqtayi nazarini asoslaş faoliyatini anglatadi. U faqat matnni izohlaş bilan çeklanmaydi: tarixiy voqea, ijtimoiy muammo, axloqiy dilemma, san’at asari yoki kundalik hayotdagi vaziyat ham interpretatsiya qilinişi mumkin. Şunday qilib, ijodiy yondaşuv yangi ğoya va yeçimlarni yuzaga çiqarişga xizmat qilsa, interpretatsion yondaşuv ularning mazmuniy, axloqiy va madaniy asoslarini çuqur anglaş imkonini beradi (Valquaresma et al., 2024; Dall’Alba, 2024).

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Tadqiqot nazariy-tahliliy xarakterga ega. Unda oliy ta’limda qadriyatlar, ijodkorlik, şaxsiy rivojlaniş va ma’naviy-axloqiy tarbiya masalalariga bağişlangan zamonaviy ilmiy kitoblar hamda tahrirlangan ilmiy töplamlarning mazmuni tahlil qilindi. Manbalarni tanlaşda naşriyotning ilmiy nufuzi, mavzuga bevosita aloqadorlik, naşrning bibliografik ma’lumotlari tekşirilii va oliy ta’lim kontekstiga mosligi mezon qilib olindi. Xususan, oliy ta’limda qadriyatlar va dunyoqaraş masalalarini yorituvçi asarlar (Rao et al., 2024), ijodkorlik pedagogikasiga oid xalqaro töplamlar (Brown et al., 2024; Valquaresma et al., 2024), Şuningdek, universitetda fazilat va şaxsiy rivojlaniş masalalarini tahlil qiluvçi tadqiqotlar (Brant et al., 2022; Dall’Alba, 2024) konseptual manba sifatida körib çiqildi.

Tadqiqotda quyidagi metodlardan foydalanildi. Birinçidan, ilmiy adabiyotlarni nazariy tahlil qiliş orqali “ma’naviy dunyoqaraş”, “ijodiy yondaşuv” va “interpretatsion yondaşuv” tuşunçalarining mazmuniy çegaralari aniqlaştirildi. Ikkinçidan, qiyosiy tahlil yordamida ijodiy va interpretatsion yondaşuvlarning umumiy hamda farqli jihatlari belgilandi. Uçinçidan, sintez va umumlaştiriş asosida ularning birgalikda qöllanişi mumkin bölgan pedagogik mexanizmlari ajratib olindi. Törtinçidan, pedagogik modellaştiriş orqali maqsad, mazmun, metod, pedagogik şart-şaroit va kutiladigan natijalarni özaro boğlovçi konseptual tuzilma işlab çiqildi. Ta’limdagi ijodkorlikni turli kontekstlar bilan boğlab örganiş zarurligi mazkur metodologik yondaşuvning dolzarbligini kuçaytiradi (Tillman, 2024; Glynn, 2023).

Mazkur işda respondentlar, tajriba-sinov guruhlari yoki statistik körsatkiçlar qöllanilmagan. Şu sababli natijalar empirik samaradorlik isboti sifatida emas, balki keyingi tajriba-sinov tadqiqotini loyihalaşga xizmat qiluvçi nazariy xulosalar sifatida talqin etiladi.

Metodologik çeklov şundan iboratki, “ma’naviy dunyoqaraş” köp qirrali va madaniy kontekstga sezgir tuşunça bölib, uni bitta universal mezon bilan töliq

ölçaş qiyin. Şu bois maqolada qadriyatlarni majburan bir xillaştiriş emas, balki insonparvarlik, mas’uliyat, adolat, hurmat va mustaqil axloqiy mulohaza kabi keng qamrovli mezonlar doirasida pedagogik rivojlaniŞni qöllab-quvvatlaş nazarda tutiladi (Beale & Easton, 2025; Rao et al., 2024).

NATIJALAR

Nazariy tahlil natijasida ma’naviy dunyoqaraşni rivojlantirişga xizmat qiluvçi törtta özaro boğliq komponent ajratildi: kognitiv, qadriyatli-motivatsion, refleksiv-baholovçi va faoliyatga yönaltirilgan komponentlar. Kognitiv komponent talabaning ma’naviy-axloqiy tuşunçalar, ijtimoiy munosabatlar va madaniy meros haqidagi bilimlarini qamrab oladi. Qadriyatli-motivatsion komponent uning inson qadr-qimmati, adolat, halollik va mas’uliyatga munosabatini ifodalaydi. Refleksiv-baholovçi komponent öz qaraşlari, hissiyotlari va xatti-harakatlarini tahlil qiliş qobiliyatini anglatadi. Faoliyatga yönaltirilgan komponent esa qadriyatlarni amaliy qaror va xulqda namoyon etiş bilan boğliq. Bu komponentlar bir-biridan ajralgan holda emas, balki özaro ta’sirda rivojlanadi. Oliy ta’limda qadriyatlar öquv dasturi, ta’lim jarayoni va baholaş bilan boğliq tizimli hodisa sifatida qaralişi ham uşbu xulosani qöllab-quvvatlaydi (Rao et al., 2024).

Ijodiy yondaşuvning birinçi pedagogik imkoniyati – talabaning axloqiy muammoga bir neçta nuqtayi nazardan qaraşini rağbatlantirişidir. Masalan, akademik halollik, jamoaviy mas’uliyat, raqamli muhitdagi odob yoki ekologik javobgarlik bilan boğliq vaziyatlar talabalarga muammoli topşiriq sifatida taqdim etilişi mumkin. Talabalar vaziyat sabablarini aniqlaydi, manfaatdor tomonlarni belgilaydi, muqobil yeçimlar Işlab çiqadi va har bir yeçimning ehtimoliy oqibatlarini muhokama qiladi. Bunday faoliyatda ijodkorlik axloqiy tanlovni çuqurroq anglaşga xizmat qiladi. Ijodiy ta’limga oid zamonaviy adabiyotlarda ham ijodkorlikni turli fanlar va ijtimoiy-madaniy şaroitlarda rivojlantiriş mumkin bölgan pedagogik resurs sifatida köriş taklif etiladi (Brown et al., 2024; Tillman, 2024).

Ikkinçi imkoniyat – talabaning şaxsiy pozitsiyasini ijodiy ifoda etişidir. Esse, loyiha, konseptual xarita, ijtimoiy taşabbus, sahnalaştirilgan vaziyat yoki vizual hikoya orqali talaba muayyan qadriyatni qanday tuşunişini namoyon etişi mumkin. Muhimi, mahsulotning estetik jihatidan köra, unda ilgari surilgan fikrning asoslanganligi, qadriyatga munosabatning izçilligi va muqobil qaraşlarga oçiqlik baholanadi. Ijodiy pedagogika oliy ta'lim mutaxassislariga talabalarni faol, refleksiv va ijtimoiy-madaniy jihatdan jalb etilgan örganişga undovçi vositalarni taklif qilişi qayd etiladi (Glynn, 2023; Valquaresma et al., 2024).

Interpretatsion yondaşuvning birinçi imkoniyati – qadriyatlarning mazmunini kontekstda anglaşdir. Talaba tarixiy manba, badiiy matn, hayotiy voqea yoki ijtimoiy muammoni tahlil qilib, undagi axloqiy qarama-qarşiliklarni aniqlaydi. Ikkinçi imkoniyati – turli talqinlarni qiyoslaş va öz xulosasini dalillar bilan asoslaşdir. Bu jarayon talabaning tayyor fikrni takrorlaşidan köra, ma'noni mustaqil qurişiga yordam beradi. Oliy ta'limni şaxsning "böliş va şakllaniş" tajribasi bilan boğlaydigan yondaşuvlar talabaning özligini anglaşini ta'lim jarayonining muhim qismi sifatida körsatadi (Dall'Alba, 2024).

Tahlil ijodiy va interpretatsion yondaşuvlar alohida qöllanganda ham muayyan pedagogik imkoniyatga ega ekanini, biroq ularning integratsiyasi ma'naviy dunyoqaraşni rivojlantiriş uçun kengroq şaroit yaratişini körsatdi. Interpretatsiya talabaning qadriyat va hodisalar mazmunini anglaşiga yordam bersa, ijodiy faoliyat uşbu angla asosida yangi ğoya, qaror yoki ijtimoiy taşabbus işlab çiqişga imkon beradi. Aksinça, ijodiy mahsulotni interpretatsiya qiliş uning axloqiy oqibatlarini qayta körib çiqiş va öz pozitsiyasini takomillaştirişga olib keliŞi mumkin. Şu ma'noda ikki yondaşuv çiziqli emas, balki takrorlanuvçi va özaro boyib boruvçi jarayonni hosil qiladi (Valquaresma et al., 2024; Brown et al., 2024).

Mazkur integratsiya asosida quyidagi pedagogik ketma-ketlik taklif etiladi: 1) qadriyatga oid muammoli vaziyat bilan taniştiriş; 2) vaziyatni individual va

guruhiy interpretatsiya qiliş; 3) qarama-qarşi pozitsiyalarni dalillar asosida muhokama etiş; 4) ijodiy yeçim yoki mahsulot işlab çiqiş; 5) işlab çiqilgan yeçimning ijtimoiy va axloqiy oqibatlarini baholaş; 6) individual refleksiya va xulosa. Bu ketma-ketlik qat'iy algoritm emas, balki pedagog tomonidan mavzu, auditoriya va ta'lim maqsadiga moslaştiriladigan metodik modeldir.

Modelni amalga oşiriş uçun beşta pedagogik şart-şaroit muhim deb topildi. Birinçisi, psixologik xavfsiz va hurmatga asoslangan muloqot muhitidir: talaba öz fikrini bildirişdan qörqmasligi, biroq boşqalarning qadr-qimmatini ham hurmat qilişi zarur. Ikkinçisi, mazmunning hayotiyligi: muhokama qilinadigan masalalar talabalarning kundalik tajribasi va kelajakdagi kasbiy faoliyati bilan boğlanişi lozim. Uçinçisi, pedagogik yönaltiriş: öqituvçi savol beriş, manbalarni tanlaş, muhokamani muvozanatlaş va dalillaş madaniyatini qöllab-quvvatlaydi. Törtinçisi, ijodiy tanlov erkinligi: talaba öz fikrini turli şakllarda ifodalaş imkoniga ega böladi. Beşinçisi, muntazam refleksiya va formativ baholaşdir. Universitet pedagogikasida ijodiy va talaba markazli amaliyotlarni rivojlantirişga oid qöllanmalar uşbu şartlarning amaliy ahamiyatini körsatadi (Glynn, 2023; Baeçer & Portnoy, 2024).

Ma'naviy dunyoqaraş rivojini kuzatiş uçun quyidagi sifat körsatkiçlari taklif etiladi: qadriyatlar mazmunini tuşuntira oliş; axloqiy vaziyatda bir neçta nuqtayi nazarni hisobga oliş; fikrini dalillar bilan asoslaş; öz qarorini ehtimoliy oqibatlar bilan boğlaş; öz xatti-harakatini tanqidiy tahlil qiliş; hamkorlikda mas'uliyatli iştirok etiş. Bu körsatkiçlar talabaning içki e'tiqodini töliq ölçaşga da'vo qilmaydi, balki ta'lim jarayonida kuzatiş mumkin bölgan namoyon böliş şakllarini tavsiflaydi. Baholaşda bitta javobni "töğri ma'naviy qaraş" sifatida belgilaşdan qoçiş, aksinça, mulohazaning asoslanganligi va hurmat tamoyiliga rioya etilişini e'tiborga oliş lozim (Brant et al., 2022; Beale & Easton, 2025).

MUHOKAMA

Olingan nazariy natijalar ma'naviy dunyoqaraşni rivojlantirişni faqat ma'naviy-ma'rifiy tadbirlar yoki alohida fan mazmuni bilan çegaralaş yetarli

emasligini körsatadi. Uşbu jarayon universitetning kundalik pedagogik madaniyatiga singiŞi, ya'ni öqituvçi va talaba munosabati, auditoriyadagi muloqot, topşiriqlar mazmuni, baholaş va hamkorlik şakllarida namoyon bölişi zarur. Qadriyatlarning oliy ta'lim tizimida öqitiş, örganiş, öquv dasturi va baholaş bilan uzviy boğliqligi haqidagi tahlillar bunday tizimli qaraşni asoslaydi (Rao et al., 2024).

Ijodiy yondaşuvning ahamiyati şundaki, u talabani ma'naviy masalalar yuzasidan passiv tinglovçi emas, balki fikr işlab çiquvçi va qaror qabul qiluvçi subyektga aylantiradi. Biroq ijodkorlik öz-özidan ma'naviy jihatdan ijobiy natijani kafolatlamaydi. Yangi ğoya yoki noodatiy yeçimning ijtimoiy oqibatlari, boşqalarga ta'siri va axloqiy maqbulligi ham muhokama qilinişi kerak. Şu bois ijodiy faoliyat interpretatsiya va refleksiya bilan töldirilişi lozim. Ijodkorlikni ijtimoiy transformatsiya, madaniy kontekst va tanqidiy fikrlaş bilan boğlab örganuvçi zamonaviy töplamlar ham ijodiy ta'limning mazmuniy va axloqiy ölçamlarini hisobga oliş zarurligini körsatadi (Valquaresma et al., 2024; Tillman, 2024).

Interpretatsion yondaşuv esa qadriyatlarni tayyor va özgarmas şiorlar sifatida emas, balki tarixiy, madaniy va ijtimoiy kontekstda anglanadigan ma'nolar sifatida körib çiqişga imkon beradi. Bunda talaba turli talqinlar mavjudligini tan oladi, biroq bu barça qaraşlar teng darajada asosli degani emasligini ham tuşunadi: talqin dalil, mantiq, kontekst va inson qadr-qimmatiga hurmat mezonlari bilan tekşiriladi. Mazkur yondaşuv ma'naviy tarbiyani fikriy erkinlik va mas'uliyat bilan uyğunlaştiradi. Universitetda fazilatlarni rivojlantirişga doir munozaralar ham pluralistik muhitda pedagogik ta'sirning imkoniyatlari va çegaralarini hisobga oliş zarurligini ta'kidlaydi (Brant et al., 2022).

Taklif etilgan modelning muhim jihati – talabaning şaxsiy pozitsiyasini hurmat qiliş bilan birga, uni dalillaş, oqibatlarni köra biliş va boşqalar manfaatini hisobga olişga undaşidir. Su tariqa ma'naviy dunyoqaraş individual qaraşlar

yiğindisi emas, balki şaxsning özіga, boşqalarga va jamiyatga nisbatan mas'uliyatli munosabatini şakllantiruvçi yaxlit pedagogik natija sifatida qaraladi. Ta'limning inson kamoloti, adolat va mas'uliyat bilan boğliq maqsadlarini qayta körib çiqayotgan zamonaviy falsafiy-pedagogik munozaralar uşbu pozitsiyaning dolzarbligini kuçaytiradi (Beale & Easton, 2025; Dall'Alba, 2024).

Şu bilan birga, maqola nazariy xarakterga ega bölgani sababli taklif etilgan komponentlar, ketma-ketlik va körsatkiçlarning amaliy samaradorligi hali tajriba-sinov orqali tekşirilmagan. Keyingi tadqiqotlarda turli oliy ta'lim yönalişlari va kurslarida pedagogik modelni sinaş, boşlanğiç va yakuniy diagnostika vositalarini işlab çiqiş, talabalar refleksiv yozuvlari hamda loyiha mahsulotlarini sifat jihatidan tahlil qiliş maqsadga muvofiq. Bunday tadqiqot ijodiy ta'lim strategiyalarining turli kontekstlarda qanday işlaşini aniqlaşga yordam beradi (Brown et al., 2024; Baeçer & Portnoy, 2024).

XULOSA

Nazariy tahlil asosida quyidagi xulosalarga kelindi. Birinçidan, talabalarda ma'naviy dunyoqaraşni rivojlantiriş oliy ta'limning muhim pedagogik vazifalaridan biri bölib, u bilim, qadriyatli munosabat, refleksiya va mas'uliyatli faoliyatning özaro birligida namoyon böladi. Ikkinçidan, ijodiy yondaşuv talabalarning mustaqil fikrlaşi, muammoli vaziyatlarga muqobil yeçim topişi va şaxsiy pozitsiyasini ifodalaşini rağbatlantiradi. Uçinçidan, interpretatsion yondaşuv qadriyatlar va ijtimoiy-madaniy hodisalarni kontekstda anglaş, turli talqinlarni qiyoslaş hamda asoslangan xulosa çiqarişga imkon beradi. Törtinçidan, mazkur ikki yondaşuv integratsiyasi anglaşdan ijodiy ifodaga, undan esa refleksiv baholaşga olib boruvçi pedagogik jarayonni yuzaga keltiradi (Rao et al., 2024; Valquaresma et al., 2024).

Amaliy jihatdan oliy ta'limda muammoli vaziyatlar, dialogik muhokamalar, ijodiy loyihalar, qadriyatlar tahlili va refleksiv topşiriqlarni özaro boğlab qöllaş tavsiya etiladi. Bunda pedagogik muhit fikrlar xilma-xilligini

hurmat qilişi, talabaning mustaqil xulosasini rağbatlantirişi va axloqiy mulohazani dalillar bilan asoslaşga yönaltirişi lozim. Maqolada taklif etilgan komponentlar, pedagogik şart-şaroitlar va körsatkiçlar keyingi empirik tadqiqot uçun nazariy asos bölib xizmat qilişi mumkin. Kelgusida modelni tajriba-sinovdan ötkaziş, diagnostika mezonlarini aniqlaştiri va turli ta'lim kontekstlarida qiyosiy tahlil qili zarur (Glynn, 2023; Brown et al., 2024).

Umuman olganda, ma'naviy dunyoqaraşni rivojlantiriş talabaning tayyor xulosalarni yod oliŞi emas, balki qadriyatlarni anglab, şarhlab, mustaqil fikr yuritib va kundalik faoliyatida mas'uliyat bilan qöllay olişi bilan belgilanadi. Ijodiy va interpretatsion yondaşuvlarning uyğunligi ana şu maqsadga yönaltirilgan pedagogik imkoniyatlarni kengaytiradi (Brant et al., 2022; Beale & Easton, 2025).

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Baecher, L., & Portnoy, L. (Eds.). (2024). Playful pedagogy in higher education: Research and cases from across the disciplines. Springer. https://doi.org/10.1007/978-3-031-54956-4

2. Beale, J., & Easton, C. (Eds.). (2025). The future of education: Reimagining its aims and responsibilities. Oxford University Press. https://doi.org/10.1093/9780197669761.001.0001

3. Brant, J., Brooks, E., & Lamb, M. (Eds.). (2022). Cultivating virtue in the university. Oxford University Press. https://doi.org/10.1093/oso/9780197599075.001.0001 Turgunova, R., & Anarbekova, G. (2026). TRANSFORMING FRAGMENTED CONNECTIONS BETWEEN SUBJECTS INTO A SYSTEMATIC CURRICULUM THAT DEVELOPS FUTURE-ORIENTED THINKING. ВОПРОСЫ ФИЛОЛОГИИ (МАГИСТРАТУРА), Vol. 1. № M 2/1, 292-296, 2026. https://journals.tnmu.uz/index.php/fm/article/view/5082/5299

4. Brown, N., Ince, A., & Ramlackhan, K. (Eds.). (2024). Creativity in education: International perspectives. UCL Press. https://doi.org/10.14324/111.9781800080638

5. Dall'Alba, G. (Ed.). (2024). Being and becoming through higher education: Expanding possibilities. Springer. https://doi.org/10.1007/978-981-97-2062-0

6. Glynn, M. (2023). Creative pedagogy: A handbook for HE professionals. Critical Publishing.

7. Rao, M. B., Singh, A., & Rao, P. M. (2024). Worldviews and values in higher education: Teaçing, learning, curricula, and assessment. Emerald Publishing. https://doi.org/10.1108/9781802628975

8. Tillman, D. A. (Ed.). (2024). Exploring perspectives on creativity theory and research in education. Springer. https://doi.org/10.1007/978-3-031-55416-2

9. Valquaresma, A., Dantas de Paula, L., & Rodney, T. K. (Eds.). (2024). Creativity and learning: Navigating transformative perspectives for complex and contemporary environments. Palgrave Macmillan. https://doi.org/10.1007/978-3-031-73393-2

10. Watts, P., Fullard, M., & Peterson, A. (2021). Understanding character education: Approaches, applications and issues. McGraw-Hill/Open University Press.